

**MUSIQA SAVODI MASHG‘ULOTLARIDA REPERTUAR TANLASHNING
PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI****Raimova Dilfuza***Andijon davlat pedagogika
instituti professor-o‘qituvchisi***Habibulayeva Zebiniso Javlonbek Qizi***Andijon davlat pedagogika instituti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabda musiqa savodi darslarida repertuar tanlashning psixologik-pedagogik asoslari va maktab o‘quvchilariga repertuar tanlashda psixologik bilimlar qanchalik muhimligi haqida so‘z boradi. Ushbu ish musiqa savodimashg‘ulotlari uchun repertuar tanlashning psixo va pedagogik asoslarini yoritadi. Repertuar tanlash jarayonida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari alohida e‘tiborga olinadi. Psixologik omillar bolalarning musiqiy qiziqishi, idroki va emotsional tajribasiga tayanadi. Pedagogik yondashuv esa materialning tarbiyaviy ahamiyati va o‘quv maqsadlariga mosligini belgilaydi. Repertuar mazmuni o‘quvchilarda musiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Mashg‘ulotlar uchun tanlangan asarlar tabaqalashtirilgan bo‘lishi ta‘lim samaradorligini oshiradi. Musiqa ta‘limida bu qanchalik muhim ekanligi haqida, ochib beramiz.

Kalit sozlar: Musiqa savodi, Repertuar, Pedagogik yondashuv, Psixologik asoslar, O‘quvchilarning yosh xususiyatlari, Did va qiziqish, Ta‘lim samaradorligi

KIRISH: O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risidagi. Qonuni Umumiy ta‘lim tizimini tartibga soluvchi asosiy qonun. Musiqa darsi, musiqa madaniyati va umuman — ta‘lim jarayonida o‘quv yo‘nalishlari, darsliklar va o‘quv dasturlarini belgilashda uning normalari asos bo‘ladi.

ASOSIY QISM: Musiqa savodi o‘zi nima ekanligi bilib olinaylik. **Musiqa savodi-** musiqali harakatlar, cholg‘uchilik va ijodkorlik faoliyatlarni amalga oshirishda o‘yin metodlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Zotan, ushbu faoliyatlar ko‘proq o‘yin xususiyatlari bilan bog‘liq. Dasturda tinglash va kuylash uchun asarlar talab darajasidan ortiq berilgan. Unda chorak mavzulariga moslab asarlarni deyarli ikki xissa miqdorda tanlash va lozim bo‘lganda dasturdan tashqari asarlardan ham foydalanish mumkin. Nota savodi, cholg‘uchilik, raqs harakatlari, shuningdek, musiqa ijodkorligi faoliyati mazmunida tavsif etilgan asarlar ham shartli ravishda berilgan. Dars sharoitiga qarab ularni almashtirish mumkin. Bu esa darslarni rejalashtirishda va darslarga tayyorgarlik ko‘rishda ijodiy yondoshishni taqazo etadi. Bunda shu narsaga e‘tiborni kuchaytirish lozimki, garchi dasturda asarlar va mashg‘ulotlar mazmuni har bir faoliyat turiga doir alohida – alohida ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, darslarni

rejalashtirishda va ularni o'tishda dars mazmunidan kelib chiqishi va uning mohiyatini ochib berishi lozim bo'ladi. shunday qilib, qiladi.

Musika savodi darsining mustaqil faoliyati sifatida emas, balki barcha faoliyatlari turlari bilan bog'lab tahlil qilinishi va uni ongli idrok etilishi lozim.

Musika savodi notalar haqida ma'lumot emas, balki notagacha bo'lgan davr, musika janrlari, shakllari, milliy musika asboblari bilan tanishtirish, ijrochi, tinglovchi, kompozitor va bastakorlar haqida va nihoyat musika ifodalari kuy, temp, registr, dinamika va boshqalar bilan tanishtirishni o'z ichiga oladi.

Repertuar - (frans. repertoire, lotincha repertorium — ro'yxat, izohlash) — drama teatri, musiqali teatr, estrada konserti yoki ayrim artist tomonidan ijro etiladigan asarlar majmui. R. uslubi va janriga ko'ra ham farqlanadi (romantik R., komediya R.i), "zamonaviy R.", "mumtoz R." tushunchalari bo'ladi. [1]

Biz avvalo repertuar va musika savodi nima ekanligiga oydinlik kiritib oldik, endi esa pedagogik va psixologik asoslari va maktab repertuarlari tanlashdagi, ahamiyati haqida gaplashamiz. Maktab yoshidagi bolalar uchun repertuar tanlashda nimalarga e'tibor qilish zarur, qanday psixologik va pedagogik asoslari mavjud.

Psixologik asoslar

Musika savodi darslarida repertuar tanlashda quyidagi psixologik omillar hisobga olinadi:

1. Yosh psixologiyasi

Maktabgacha yosh — musiqani idrok etish obrazli, qisqa va sodda kuylar yaxshi qabul qilinadi.

Boshlang'ich sinflar — ritm, shakl va tempni farqlash kuchayadi; qiziqarli, jonli va mazmundor kuylar samarali.

2. Emotsional rivojlanish

Musika bolaning hissiyatini uyg'otishi, emotsional rezonans hosil qilishi kerak.

Repertuar bolaning **ruhiy holati, motivatsiyasi, ichki ehtiyojlariga** mos bo'lishi zarur.

3. Idrok va eshitish qobiliyati

Repertuar **melodik eshituv, ritmik eshituv, xotira** va **diqqat** rivojiga mos bo'lishilozim. Oddiydan murakkabga qarab o'sib boradigan musiqalar tanlanadi.

4. Qiziqish va motivatsiya

Bola sevadigan obrazlar, mazmunlar, xalq qo'shiqlari yoki zamonaviy elementlar motivatsiyani oshiradi. Qiziqishning davomiyligi musika savodi jarayonini samarali qiladi.

5. Shaxsiy individual farqlar

Har bir bola musiqani turlicha qabul qiladi; temperament, xarakter va qobiliyat inobatga olinadi. Agar biz o'quvchi harakteriga va temperampetiga teskari asarni

tanlab bersak, bu asarni yetarli darjada yaxshi o'zlashtira olamasligi kabi qiyinchliklar yuzga kelishi ehtimoli kata.

2. Pedagogik asoslar

Repertuar tanlashda o'qitishning ilmiy-metodik tamoyillariga tayangan holda quyidagilar aytishimiz mumkin:

1. Didaktik tamoyillar

Ilmiylik — asarlar musiqiy savod tushunchalarini (pauza, ritm, o'lchov, lad) o'rgatish uchun mos bo'lishi.

Tizimlilik va izchillik — repertuar oddiydan murakkabga qarab tanlanadi.

Ko'rgazmalilik — kuyning obrazliligi, talaffuzi, ritmning eshitiladigan namunalari mavjud bo'lishi.

Moslik (yoshga va darajaga) — o'quvchilarning bilim, qobiliyat va yosh imkoniyatiga mos repertuar.

2. Kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv-Repertuar orqali o'quvchida **ijrochilik, musiqiy tafakkur, tahlil, ijodkorlik, estetik did** kabi kompetensiyalar shakllantiriladi.

3. Tarbiyaviy vazifalar-Musiqiy asarlar orqali axloqiy, estetik, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar singdiriladi. Xalq qo'shiqlari orqali milliy o'zlikni anglash kuchayadi.

4. Metodik talablar-Darsdagi mavzuga mos, o'rgatilayotgan nazariy tushunchani yoritadigan repertuar tanlanadi. O'quvchining ovoz diapazoni, ritmik tayyorgarligi, jamoaviy kuylash madaniyati inobatga olinadi.

5. O'qituvchi mahorati-Pedagog repertuarni to'g'ri tanlabgina qolmay, uni metodik jihatdan to'g'ri yetkazishi, analys qila olishi, muhit yaratishi kerak.

Mavzuning muammosi-Mavzu bo'yicha asosiy muammo quyidagilardan iborat:

1. **O'qituvchilar repertuar tanlashda psixologik omillarni yetarli darajada hisobga olmasligi.**

Ko'plab darslarda asarlar bolaning yoshiga, ovoz diapazoniga yoki qiziqishiga mos kelmaydi. ya'ni yoshiga nisbatan katta yoki qiziqish va xarakteriga mos kelmay qolishi.

2. **Repertuar mazmunining dars maqsadi bilan to'liq bog'lanmasligi.** Ba'zan qo'shiq yoki asar mavzuga mos bo'lmaydi, natijada musiqa savodi tushunchalari to'liq o'zlashtirilmaydi.

3. **Metodik adabiyotlarning yetishmasligi yoki yangilanmaganligi.** Bu o'qituvchiga repertuar tanlashda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanishni qiyinlashtiradi.

4. **O'quvchilarning individual farqlarini inobatga olmaslik.** Har bir bolaning musiqiy qobiliyati, xarakteri va eshitish qobiliyati turlicha. Bir xil repertuar hammani birdek rivojlantira olmaydi.

5. Tarbiyaviy mazmunning yetarli darajada hisobga olinmasligi.

Repertuar orqali milliy qadriyatlar va estetik tarbiyani singdirish imkoniyati ba'zan to'liq ishlatilmaydi.

Xulosa Musiqa savodi mashg'ulotlarida repertuar tanlash jarayoni o'quvchilarni musiqiy rivojlantirish, ularning estetik didini shakllantirish va musiqani ongli idrok etishga yo'naltirilgan murakkab pedagogik-psixologik jarayondir. Maqolada ko'rib o'tilganidek, repertuar tanlash faqat dars mazmuniga mos qo'shiqlarni saralash emas, balki o'quvchilarning yosh xususiyatlari, emotsional rivojlanishi, qiziqishlari, idrok va eshitish qobiliyatini inobatga olgan holda ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi. Psixologik omillar — o'quvchilarning musiqani qabul qilishi, hissiy tajribasi va motivatsiyasi — dars samaradorligining asosiy omillaridan biridir. Pedagogik yondashuv esa repertuarni tanlashda didaktik tamoyillarga rioya qilish, o'quvchilarning musiqiy tafakkuri va ijrochilik ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishni ko'zda tutadi. Shunday qilib, musiqa savodi mashg'ulotlarida repertuar to'g'ri tanlansa, o'quvchilarda musiqaga nisbatan barqaror qiziqish, estetik zavq, milliy madaniyatga hurmat va ijodkorlik qobiliyatlari shakllanadi. Aksincha, noto'g'ri tanlangan repertuar o'quvchining motivatsiyasini pasaytirishi va dars samaradorligini susaytirishi mumkin. Shu sababli o'qituvchi repertuar tanlash jarayonida psixologik, pedagogik va metodik omillarni chuqur o'rganib, ilmiy yondashuv asosida qaror qabul qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi. (2020). *"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun* [Qonun]. Tashkent: Tashpmi.uz. <https://tashpmi.uz/uz/institut/normativ-huquqiy-hujjatlar/qonunlar>
2. Dilorom Xamdanova 2021 MUSIQA DARSLARININING MAZMUNI VA UNI TASHKIL ETISHGA QO'YILGAN TALABLAR Directory Indexing of International Research Journals-Scientific Library of Uzbekistan Academic Research, Uzbekistan 72 www.ares. **Qodirov, R. (2018).** *Musiqa ta'limi metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. (Musiqa savodi, repertuar tanlash, musiqiy tarbiya bo'yicha asosiy darsliklardan biri.)
3. **Nishonova, S., & Yo'ldosheva, M. (2017).** *Bolalar psixologiyasi*. Toshkent: Fan. (O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini aniqlashda muhim manba.)
4. **Kabalevskiy, D. (1999).** *Maktabdagi musiqa ta'limi nazariyasi*. Moskva: Prosveshcheniye. (Musiqa darslari, repertuar tanlash va estetik tarbiya bo'yicha klassik manba.)
5. **Orff, K. (2004).** *Orff Schulwerk: Music for Children*. Mainz: Schott Music. (Bolalar uchun musiqiy rivojlanish, ritm va ijodkorlik bo'yicha muhim metodik asar.)

6. **Kodaly, Z. (1974).** *The Selected Writings of Zoltán Kodály*. London: Boosey & Hawkes.
(Musika ta'limida xalq qo'shiqlari, eshituvni rivojlantirish va repertuar tanlash asoslari.)
7. **Davydov, V., & Elkonin, D. (2001).** *Pedagogik psixologiya*. Moskva: Akademiya.
(O'quv faoliyatining psixologik mezonlari, yosh xususiyatlari haqida.)

